



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

## **“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI**

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

### **TAHRIRIYAT KENGASHI**

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali  
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

|     |  |   |     |
|-----|--|---|-----|
| 1.  | Шаисламова Наргиза Кабиловна                                       | Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш  | 7   |
| 2.  | Ashurova Nargiza Chori qizi  | O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari  | 19  |
| 3.  | Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich                                  | Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish  | 24  |
| 4.  | Sobirov Otabek Olimjonovich  | Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari  | 36  |
| 5.  | Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi        | Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri  | 41  |
| 6.  | Xalimov Shaxboz Xalimovich   | Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari  | 48  |
| 7.  | Kenjayev Ikrom Ergashboyevich                                      | Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari   | 53  |
| 8.  | Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li | Kredit riski  | 60  |
| 9.  | Курбонов Саид Акбарович  | АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири   | 67  |
| 10. | Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi    | Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries   | 73  |
| 11. | Mardonova Malika Asatilloevna                                      | Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari   | 80  |
| 12. | Alimov Baxodir Batirovich  | Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili   | 85  |
| 13. | Narziyev Abror Baxtiyorovich                                       | Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili  | 95  |
| 14. | Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna      | O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari  | 106 |
| 15. | Юсупов Бехзод Юсуп угли  | Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений | 112 |
| 16. | Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович             | Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)                     | 120 |
| 17. | Баракаев Отабек Отакулович   | Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари                                  | 127 |
| 18. | Muradov Botir Hayat  | Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili                       | 140 |
| 19. | Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli                                  | Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model                                      | 148 |
| 20. | Чориева Нигина Қахрамановна  | Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари       | 155 |





|     |  |  |     |
|-----|--|--|-----|
| 21. | Chintemirova Diyora Shuxrat qizi                                   | Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari                             | 160 |
| 22. | Artikov Ne'matulla Abdusalamovich                                  | Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari   | 166 |
| 23. | Кузиева Динора Баходировна   | Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш   | 173 |
| 24. | Умарова Гулзодахон Қодирбековна                                    | Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари   | 181 |
| 25. | Murtozayeva Zarnigor Komol qizi                                    | Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish            | 187 |
| 26. | Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li                                   | Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari                                    | 193 |
| 27. | Mardonov Akromjon Nusrat ogli                                      | The impact of fiscal policy on the national economy  | 201 |
| 28. | Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li                               | O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash              | 206 |
| 29. | Babaxanova Nozima Saidakbarovna                                    | Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari                        | 213 |
| 30. | Tilabov Nasrulla Tashmurotovich                                    | O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish                 | 220 |
| 31. | Rahmonova Durdona Hasan kizi                                       | Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region | 226 |
| 32. | Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich                                 | Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari  | 233 |
| 33. | Achilov Dilshod Marufovich   | Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari                                 | 244 |
| 34. | Baratova Zumrat Xalmetjanovna                                      | Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish  | 253 |
| 35. | Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna                                   | Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari         | 261 |
| 36. | Ishniyazov Otabek Baxodirovich                                     | Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish   | 268 |
| 37. | Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li                            | Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili  | 275 |
| 38. | Qudratova Feruza Nasriddinovna                                     | Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors          | 283 |
| 39. | Xasanov Komil Mutalibjanovich                                      | Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash                                 | 591 |
| 40. | Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi | Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system                          | 297 |
| 41. | Ollokulova Feruza Mansurovna                                       | Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari         | 302 |
| 42. | Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna                                | Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari                                    | 310 |
| 43. | Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi                                      | Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari  | 317 |





|     |   |   |     |
|-----|---|---|-----|
| 44. | Tureev Azizbek Abatovich                | Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash  | 324 |
| 45. | Mirzataev<br>Muratbaevich               | Salamat<br>Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari       | 329 |
| 46. | Komekova Gulzira Sharbaevna             | Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari                                      | 335 |
| 47. | Qidirmiyazov<br>Sherniyazovich          | Ajiniyaz<br>Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari | 340 |
| 48. | Розиков Жалил Жалолович                 | Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве  | 346 |
| 49. | Karimov<br>Gapardjonovich               | Eminjon<br>Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari  | 351 |
| 50. | Toshev Nurbek Janon o‘g‘li              | Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash                                      | 359 |
| 51. | Kurbonova Malika Akhmad kizi            | Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development                     | 365 |
| 52. | Isakova Naima Ikromjonovna              | Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari                | 371 |
| 53. | Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi       | Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili   | 377 |
| 54. | Muminova Parvina Ilhom qizi             | Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish  | 383 |
| 55. | Abduraxmonova<br>Alimov<br>Baxodirovich | Munisa,<br>Ulug‘bek<br>Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari                    | 389 |
| 56. | Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li         | Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari  | 395 |
| 57. | Xamdamov<br>Komilovich                  | Shavkat<br>Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari  | 402 |
| 58. | Ruziyev G‘anisher Usarovich             | Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari         | 411 |
| 59. | Atamuratova<br>Muzafarovna              | Gulrux<br>Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi                                       | 419 |
| 60. | Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi           | Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil                          | 424 |
| 61. | Toshpulatov<br>Akromovich               | Davron<br>Islom moliyasida risklarni boshqarish   | 437 |
| 62. | Amir Xudaykulov                         | Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari   | 451 |





## HUDUDLAR KESIMIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti talabasi

E-mail: [dchintemirova@gmail.com](mailto:dchintemirova@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0683-2938>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining hududiy rivojlanish tendensiyalari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosan, 2020-2024 yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni, ular tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari, yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi, hududlar kesimidagi farqlar va ushbu tafovutlarning asosiy sabablari o‘rganiladi. Olingan natijalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, statistik tahlil, YaIM, iqtisodiy islohotlar, ish o‘rinlari, hududlar kesimi.

## DEVELOPMENT TRENDS OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP ACTIVITY ACROSS REGIONS

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Student of Tashkent State  
University of Economics

E-mail: [dchintemirova@gmail.com](mailto:dchintemirova@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0683-2938>

**Abstract.** This article analyzes the regional development trends of small businesses and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan based on official statistical data. The study focuses on the period from 2020 to 2024, examining the number of small business entities, the jobs they have created, their share in gross domestic product (GDP), as well as regional disparities and their underlying causes. Based on the findings, practical proposals and recommendations are developed to ensure the sustainable development of small businesses and private entrepreneurship.

**Keywords:** small business, private entrepreneurship, regional development, statistical analysis, GDP, economic reforms, employment, regional disparities.

## ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗНЫХ РЕГИОНАХ

Чинтемирова Диёра Шухрат қизи

Студентка Ташкентского государственного  
экономического университета

Электрон почта: [dchintemirova@gmail.com](mailto:dchintemirova@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0683-2938>

**Аннотация.** В данной статье проводится анализ тенденций регионального развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан на основе официальных статистических данных. В исследовании рассматриваются показатели за 2020-2024 годы, включая численность субъектов малого предпринимательства, количество созданных ими рабочих мест, их доля в валовом внутреннем продукте (ВВП), а также территориальные различия и их основные причины. На основе полученных результатов разработаны практические предложения и





*рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития малого бизнеса и частного предпринимательства.*

**Ключевые слова:** *малый бизнес, частное предпринимательство, региональное развитие, статистический анализ, ВВП, экономические реформы, рабочие места, региональные различия.*

### **Kirish**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiyl sektorning huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi hamda biznes muhitining yaxshilanishi natijasida, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, ushbu faoliyatning hududlar kesimida faollashuvi ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, aholi bandligini oshirish va mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PF-50-son Farmoni ishlab chiqilgan. Mazkur farmon asosida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun 120 trillion so‘m miqdorida kredit ajratilishi belgilandi. Bundan tashqari, mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, hujjatlashtirish tartiblarini soddalashtirish va davlat tomonidan xizmat ko‘rsatishlarning raqamlashtirilgan tizimlarini joriy etish choralari ko‘rildi. Aynan ushbu chora-tadbirlar hududlarda xususiyl tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xususiyl sektor faoliyatining hududlar bo‘yicha rivojlanish darajasini tahlil qilish, mintaqaviy tafovutlarni aniqlash va ularning sabablarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Zero, xususiyl tadbirkorlikning barqaror o‘shishi iqtisodiy faollik, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta‘minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar ushbu sohaning iqtisodiy o‘shishdagi o‘rni, bandlik darajasini oshirishdagi roli va hududiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Kichik biznesning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri masalasiga klassik yondashuvlar orasida D.Birch[2] tomonidan ilgari surilgan “gazel firmalar” nazariyasi alohida e‘tiborga loyiq. U kichik va o‘rta korxonalar aynan ish o‘rinlari yaratishda eng faol sektor ekanligini asoslab bergan. Storey[3] esa o‘z tadqiqotlarida kichik biznesni rivojlantirishda hukumat siyosatining hal qiluvchi omil ekanini ta‘kidlagan.

Xalqaro miqyosda Jahon banki, OECD va UNDP tomonidan e‘lon qilingan so‘nggi hisobotlarda kichik biznesning iqtisodiy diversifikatsiya va ijtimoiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasi batafsil yoritilgan[4].

O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning hududiy rivojlanishdagi o‘rni muhim mavzu sifatida ko‘tarilgan. Jumladan, X.A.Mullajonov o‘z izlanishlarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy o‘shishdagi rolini tahlil qilib, xususiyl sektorni hududlar bo‘yicha teng rivojlantirish zarurligini ko‘rsatgan[5]. N.Sh.Nurmuhamedova esa o‘z tadqiqotida O‘zbekiston viloyatlari kesimida kichik biznes subyektlarining tarkibi, ularning moliyaviy imkoniyatlari va infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasiga alohida e‘tibor qaratgan[6].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyatining hududiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan





usullardan foydalanildi. Tahlil jarayonida kuzatish, guruhlash, taqqoslash, umumlashtirish, statistik va grafik usullar hamda sintez yondashuvlari qo‘llanildi. 2020-2024-yillardagi rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida hududlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganilib, ularni shakllantiruvchi omillar tahlil qilindi.

### **Tahlil va natijalar**

Davlat rahbari matbuot xizmati xabariga ko‘ra, keyingi besh yilda kichik va o‘rta korxonalar soni ikki baravar ko‘paydi. Ularda 10,5 million kishi ishlaydi, bu esa jami mehnatga layoqatli aholining 74 foizini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan bir qismi shu tarmoqqa to‘g‘ri keldi. Xususan, 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning ustuvor vazifalari uchun quyidagi maqsadlar belgilandi: sektorning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, 70 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratish[7]. 2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalar 358,1 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subektlarining soni har 1000 aholiga 12,1 birlikni tashkil qildi[8].

Bugungi kunda O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi hududlardagi kreditlash imkoniyatlari, tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanish darajasi, soliq siyosati, axborot xizmatlari hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan institutsional qo‘llab-quvvatlash vositalarining ta‘sirida o‘zgarib bormoqda. Bu omillar ta‘sirida yuzaga kelayotgan hududlararo nomutanosibliklar mazkur sohani chuqur tadqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

### **1-jadval**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi, %<sup>4</sup>**

| <b>Hududlar</b>       | <b>2020</b> | <b>2021</b> | <b>2022</b> | <b>2023</b> | <b>2024</b> | <b>2024-yilda 2020-yilga nisbatan o‘zgarishi, %</b> |
|-----------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|---|
| Qoraqalpog‘iston Res. | 62,3        | 61,4        | 61,8        | 64,6        | 65,8        | 5,6   |
| Andijon               | 72,7        | 74,6        | 69,6        | 68,6        | 69,5        | -4,4  |
| Buxoro                | 76,6        | 77,1        | 74,1        | 72,5        | 73          | -4,7  |
| Jizzax                | 84,1        | 81          | 78,7        | 75,3        | 74,4        | -11,5   |
| Qashqadaryo           | 74,1        | 71,8        | 70          | 70,5        | 71          | -4,2  |
| Navoiy                | 27,8        | 29,2        | 27,9        | 28,1        | 25,1        | -9,7  |
| Namangan              | 76,3        | 76,2        | 74,7        | 74,3        | 73,4        | 3,8   |
| Samarqand             | 75          | 74,3        | 70,8        | 72,3        | 72,3        | -3,6  |
| Surxondaryo           | 78          | 78,4        | 77,9        | 77,4        | 77,8        | -0,3  |
| Sirdaryo              | 73          | 71,2        | 67,8        | 65,9        | 68,2        | -6,6  |
| Toshkent vil.         | 52          | 48,2        | 49,4        | 52,2        | 53,9        | 3,7   |
| Farg‘ona              | 73,3        | 72,4        | 71,6        | 72,2        | 73,1        | -0,3  |
| Xorazm                | 77,4        | 75,8        | 71,9        | 72,7        | 72,3        | -6,6  |
| Toshkent sh.          | 53,6        | 51,1        | 51,2        | 51,7        | 52,4        | -2,2  |

Yuqorida tahlil qilingan 1-jadval ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi sezilarli darajada o‘zgarishi kuzatildi. Ushbu davr mobaynida ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich keskin pasaygan bo‘lsa, boshqa viloyatlarda esa o‘shish kuzatilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2024-yil holatida 2020-yilga nisbatan faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi (5,6%), Namangan viloyati (3,8%) va Toshkent viloyati (3,7%)da kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi o‘shishi kuzatilgan. Boshqa barcha hududlarda bu ko‘rsatkich pasaygan bo‘lib, eng katta salbiy o‘zgarish Jizzax viloyatida (-11,5%),

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.






undan keyin Navoiyda (-9,7%) viloyatida qayd etilgan. Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida bu ko‘rsatkich deyarli o‘zgarishsiz qolgan (-0,3%).

2020-2024 yillar dinamikasiga ko‘ra, 2020-yilda ko‘plab hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi yuqori bo‘lgan. Jumladan, Jizzax (84,1%), Surxondaryo (78%), Xorazm (77,4%), Buxoro (76,6%) va Andijon (72,7%) viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallagan. Lekin, Navoiy (27,8%), Toshkent viloyati (52%) va Toshkent shahri (53,6%)da ko‘rsatkichlar ancha past bo‘lib, bu hududlar iqtisodiyotida yirik sanoat korxonalarining ustunligi bilan izohlanadi. 2021-yilda ayrim hududlarda kichik biznesning YaIMdagi ulushi biroz oshgan bo‘lsa-da, bu ijobiy tendensiya barqaror saqlanmagan. 2022-2023 yillarda esa ko‘plab viloyatlarda pasayish kuzatildi. Xususan, Jizzax viloyatida bu ko‘rsatkich 2020-yildagi 84,1 foizdan 2023-yilda 75,3 foizga, 2024-yilda esa 74,4 foizga tushgan. Xuddi shunday salbiy dinamika Buxoro, Andijon, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ham kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni hududning iqtisodiy faolligi, daromad manbalari va mehnat bozoridagi holatini aks ettiradi. Bandlik darajasining yuqoriligi ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘lamining kengligini, hamda YaIMdagi ulushning salmoqliligini ko‘rsatadi. Kredit resurslari, logistika, axborot xizmatlari kabi infratuzilmalar bandlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. Hududlar o‘rtasidagi farqlar esa iqtisodiy imkoniyatlar, davlat qo‘llab-quvvatlovi va aholining faolligi bilan bog‘liq. Kichik biznesda bandlikning ortishi ishsizlikni kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.



**1-rasm. 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni, ming kishi<sup>5</sup>**

2023-yilda O‘zbekiston hududlari kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan aholining sonida sezilarli hududiy tafovutlar kuzatildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori bandlik darajasi Farg‘ona 1 230,1 ming kishi, Samarqand 1 219,5 ming kishi va Andijon viloyatlarida 1 071,9 ming kishini tashkil etib, bu hududlar iqtisodiy faolligi, aholi zichligi hamda tadbirkorlik infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Qashqadaryo (952,4 ming), Namangan (913,8 ming) va Toshkent (872 ming) viloyatlarida ham bandlik darajasining yuqoriligi kuzatilmoqda. Bu viloyatlarda kichik tadbirkorlik faoliyatining keng miqyosda rivojlanayotgani va aholi bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynayotgani namoyon bo‘lmoqda. Aksincha, Navoiy 222,2 ming, Sirdaryo 243 ming va Jizzax viloyatlarida 427,1 ming kishi bilan eng past bandlik ko‘rsatkichlari qayd etilgan. Bu holat mazkur hududlarda sanoatga yo‘naltirilgan iqtisodiy tuzilma, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan izohlanadi.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





O‘rtacha bandlik darajasi esa Qoraqalpog‘iston Respublikasida -547,6 ming, Buxoro viloyatida 598,4 ming, Xorazmda 609,8 ming va Toshkent shahrida 689,4 ming kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar mazkur hududlarda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

**2-jadval**
**Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd so‘m<sup>6</sup>**

| Hududlar              | 2020     | 2021     | 2022    | 2023     | 2024     |
|-----------------------|----------|----------|---------|----------|----------|
| O‘zbekiston Res.      | 114052,7 | 147061,6 | 181245  | 369378,4 | 466461,8 |
| Qoraqalpog‘iston Res. | 3402,9   | 4418,3   | 5291,9  | 16389,5  | 21202,2  |
| Andijon               | 7732     | 9658,4   | 11756   | 25304,3  | 31591,9  |
| Buxoro                | 6571,8   | 8287,1   | 9785,4  | 19285,6  | 23993,9  |
| Jizzax                | 3095,8   | 3980,1   | 4829,4  | 11911,5  | 14888,5  |
| Qashqadaryo           | 7308     | 8999,2   | 10831,6 | 26417,8  | 32958,6  |
| Navoiy                | 3438,9   | 4382,7   | 5431,7  | 9333,9   | 11688,4  |
| Namangan              | 5925     | 7882,8   | 9742,4  | 25783,8  | 32595,9  |
| Samarqand             | 9703     | 12607,9  | 15511,7 | 30906,6  | 38853,7  |
| Surxondaryo           | 5331,3   | 6938,4   | 8279,3  | 17200,6  | 21604,3  |
| Sirdaryo              | 1842,4   | 2227,9   | 2621,2  | 6154,5   | 7772,5   |
| Toshkent              | 11721,6  | 15117,3  | 17944,7 | 33254,9  | 41479    |
| Farg‘ona              | 9758,6   | 12186,4  | 14564,9 | 33587,8  | 41981,9  |
| Xorazm                | 4127,2   | 5390,3   | 6500,1  | 16268,6  | 20698,3  |
| Toshkent sh.          | 34094,2  | 44984,8  | 58154,7 | 97579    | 125152,7 |

Yuqoridagi 2-jadval malumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida izchil o‘shish tendensiyasi kuzatildi. 2020-yilda respublika bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 114 052,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 466 461,8 mlrd so‘mga yetdi. Bu esa to‘rt yil davomida 4,1 barobar o‘shishni, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati qariyb 44,9 foizni tashkil etmoqda.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, eng ko‘p xizmatlar hajmi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, mablag‘hajmi 125 152,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, Farg‘ona (41 981,9 mlrd so‘m) va Toshkent viloyatlari (41 479 mlrd so‘m) ham yetakchi o‘rinlarda turibdi. Bu holat mazkur hududlarda aholi zichligi yuqoriligi, iqtisodiy faollik va tadbirkorlik subyektlarining ko‘pligi bilan bevosita bog‘liqdir. Boshqa tomondan, eng past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (7 772,5 mlrd so‘m), Navoiy (11 688,4 mlrd so‘m) va Jizzax (14 888,5 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Ushbu hududlarda iqtisodiy ehtiyojlar va infratuzilma salohiyatining nisbatan pastligi, shuningdek, kichik biznes faoliyatining cheklanganligi kuzatilmoqda.

Yillik o‘shish sur‘atlariga nazar tashlasak, 2023-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda deyarli barcha hududlarda o‘shish 24-29 foiz atrofida bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mablag‘lar hajmi 29,4 foizga, Toshkent shahrida 28,3 foizga, Namangan viloyatida esa 26,4 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkichlar davlat tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasini yaqqol aks ettiradi. Mablag‘larning bosqichma-bosqich ko‘payib borayotgani kichik biznesni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi va aholi ehtiyojlarini qamrab olish darajasining ortib borayotganiga dalil bo‘la oladi.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy rivojlanishi iqtisodiy

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.





faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, ayrim hududlarda tadbirkorlik infratuzilmasining zaifligi, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi va institutsional qo‘llab-quvvatlov darajasining pastligi hududlararo nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun iqtisodiy jihatdan sust hududlarda kichik biznes subyektlari uchun maqsadli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, jumladan, kredit va grant dasturlarini kengaytirish, soliq yengilliklarini taklif etish va zarur infratuzilmani shakllantirish lozim. Shuningdek, mahalliy darajada innovatsion biznes loyihalarni tanlab moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali, hududlararo iqtisodiy tafovutlar kamayishi, tadbirkorlik faolligi ortishi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PF-50-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-7444738>
2. Birch, D. L. (1979). “The Job Generation Process”. MIT Program on Neighborhood and Regional Change.
3. Storey, D. J. (1994). “Understanding the Small Business Sector”. Routledge.
4. World Bank. (2022). Doing Business 2022: Comparing Business Regulation in 190 Economies. / UNDP. (2022). Private Sector Development in Uzbekistan: Policy and Institutional Frameworks.
5. Mullajonov X. A. “Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning o‘rni”, “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2019, №3.
6. Nurmuhamedova N. Sh. “Kichik biznes faoliyatining hududlar kesimidagi tahlili”, TDIU, 2021-yil.
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7955>
8. Akbarova Barno Shuxratovna. (2025). “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini hududiy taqsimotini statistik tadqiqi”. Muhandislik va Iqtisodiyot, 3(1), 8-13. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14875075>
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi. <https://stat.uz>

